ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 1,3

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.03.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.03.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.03.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

MAMMADOVA SHAKAR,
XAMIDOV MANSUR
Ozarbayjon va o‘zbek tillaridagi somatik frazeologizmlarning qiyosiy-tipologik tahlili 7

YAKUBOVA NILUFAR EGAMBERGANOVNA
O‘zak va qolip (vazn) nazariyasi arabiy o‘zlashmalarni
tahlil qilishning asosiy mezoni sifatida 12

SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH
Tilshunoslik fani taraqqiyotida applikativ modelning murakkab
sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni 17

ИШАНХАНОВА МУХЛИСАБОНУ ТУРГУНОВНА
Арабская лингвистическая традиция VII–XVII вв.: формирование
интеллектуального стиля и инструментов сохранения языковой нормы 21

ALIMOVA ZARIFAXON VAXOBOVNA
MAMAROZIQOVA SUG‘DIYONA SHUXRATJON QIZI
Jomiyning «Yusuf va Zulayho» dostonida forsiy o‘rin-joy yasovchi affikslarining qo‘llanilishi 25

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA,
YERJANOVA SAULE BAYMURZAYEVNA
Mahmud Koshg‘ariyning «Devony lug‘oti-t-turk» asarida keltirilgan
maqollardagi so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlari 29

SADULLAYEVA MATLYUBA AXROROVNA
Ahmad Yassaviy ijodining ramziy tili va undagi raqamli tasavvuf 33

SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
Arab tilida enantiosemiya hodisasi: semantik tabiati va ilmiy talqinlar tahlili 36

PANJIEVA NASIBA NARMAXMATOVNA
SAIBNAZAROVA NAZOKAT
English proverbs with number components 39

ЛАТИПОВ АЗИЗ АКБАРАЛИЕВИЧ
Сопоставительная характеристика категории
фазовости в английском и узбекском языкознании 42

AMONOV MUXTORJON UMAROVICH
«Boburnoma» asaridagi arabcha o‘zlashmalarda antonimlik 45

ОРИФЗОДА МАДИНА КАМИЛОВНА,
ОРИФЗОДА БОНУ КАМИЛОВНА
Системное изучение словообразовательной омонимии
в ретроспективном и перспективном аспектах 48

SABIROV ASROR ABDULLAYEVICH
Nemis–o‘zbek siyosiy terminlarining semantik va stilistik xususiyatlari 52

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI
O‘zbekistonda til siyosati va ingliz tilining rivoji 56

TURSUNOVA MARXABO RAXMONOVNA
Jojo Moyesning «To seni topgunimcha» romanida kognitiv dissonans fenomenining
psixologik va lingvistik talqini hamda uning tarjimashunoslikdagi ifodasi 60

ARZIMURODOVA E’ZOZA BERDIMUROD QIZI
Zamonaviy mobil aloqa terminlarida transliteratsiya strategiyalari: ingliz va o‘zbek tillari qiyosida 64

BOZOROVA SEVARA KAMOL QIZI
Savdo konsepti doirasida sinonimiya (o‘zbek va ingliz tillari misolida) 68

КАРИМОВА ГУЗАЛ ИХТИЯРОВНА
Лингвокультурологический аспект концепта и его изучение в разных языках 71

MAXAMMATOVA FERUZA OLIMOVNA
O‘tkir Rahmat she’riyatida sinonim so‘zlarning qo‘llanishi haqida ayrim mulohazalar 76

МУНДАРИЖА

MUSTAFOEVA MAKSAD ASKAROVNA
The structural and linguistic analysis of anthroponyms in «Beowuf» and «Alpomish» folk epics 79

NOSIROVA DILNOZA RIZOKULOVNA
Semantic and pragmatic features of john green's novels in contemporary young adult literature 82

RAXIMOVA ZARINA UKTAMOVNA
O'smirlar psixologiyasining lingvopoetik ifodasi va tarjimada ichki monolog hamda emotsional tasvir 87

RAXMATOVA GULNOZA ISOXONOVNA
O'zbek tilidagi so'roq olmoshlari va so'roq yuklamalarining ingliz tilidagisi bilan qiyosi 90

BERDIYEVA SITORA UTKEROVNA
G'afur G'ulomning «Shum bola» asarida yumorning badiiy funksiyalarining lingvistik jihatlari 93

SHAMSITDINOVA MOXINABONU AKBAR QIZI
Yapon tilida omonimlardan foydalanishda nutqiy strategiyalar 98

ADABIYOTSHUNOSLIK

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Телба образининг бадиий талқини
(Эркин Аъзамнинг «Сув ёқалаб» ва «Танҳо қайиқ» киноқиссалари мисолида) 100

ASQAROVA ZULAYXO YANGIBOYEVNA
Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyozu-d-davla» asaridagi ta'rixlarning badiiy-estetik qimmati 104

MAMADJONOVA SEVARA MAXAMADJON QIZI
Adabiyotshunoslikda dualizm tushunchasining nazariy va
metodologik asoslari (Agata Kristi poetikasi misolida) 109

RAHIMOVA SARVINOZ TOLIBOVNA
Usmon Azimning «Devorlari yiqilgan bog'» hamda «Yana sevgi haqida she'rlar»
asarlaridagi simulyakra va boshqa postmodern xususiyatlar ifodasi 112

СААКЯН РОЗА ЮРЬЕВНА
Поэтика полемического жанра в памфлетной публицистике
Даниэля Дефо и Жжонатана Свифта 115

SHAMSIYEVA SHOXISTAXON QUDRATULLAYEVNA
Gender rollarni aks ettiruvchi stereotiplar 119

НАСРИДИНОВА СИТОРА УТКИРОВНА
Мотив отсутствия и присутствия как средство создания
напряжения в рассказе Джека Ритчи «Отсутствие эмили» 125

BAFOYEVA ROXILA VALIJON QIZI
Amerika hamda o'zbek postmodern adabiyoti xususiyatlari 128

KHAKIMOVA NARGIZA KHAYRILLOYEVNA
Mythological origins of the epics "Arthuriana" and "Alpamysh" 131

TA'LIM

TILOVOVA GO'ZAL RUSTAMOVNA
Ta'lim jarayonida o'quv izohli lug'atlardan foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati 135

YULDASHEVA DILAFRUZ
The role of teacher instruction in efl classrooms: a discourse-oriented analysis
of their importance in teaching young learners 138

ijtimoiy hamjihatlikni shakllantiruvchi omil sifatidagi ahamiyati yoritilgan. So‘nggi yillarda til siyosatidagi islohotlar, shuningdek, ingliz tilini o‘rganishga qaratilgan davlat siyosati, qonunchilik asoslari va amaliy natijalari tahlil qilinadi.

Resume. This article analyzes the formation and development of language policy in Uzbekistan, with particular emphasis on the role of the English language in society. The study highlights the importance of language not only as a means of communication, but also as a factor shaping identity, culture, and social cohesion. It also examines recent reforms in language policy, as well as government policies aimed at promoting English language learning, their legal framework, and practical outcomes.

Резюме. В данной статье анализируются формирование и развитие языковой политики в Узбекистане, в частности роль английского языка в обществе. В исследовании освещается значение языка не только как средства коммуникации, но и как фактора, формирующего идентичность, культуру и социальную сплочённость. Также рассматриваются реформы языковой политики последних лет, государственная политика по продвижению изучения английского языка, её законодательные основы и практические результаты.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

JOJO MOYESNING «TO SENI TOPGUNIMCHA» ROMANIDA KOGNITIV DISSONANS FENOMENINING PSIXOLOGIK VA LINGVISTIK TALQINI HAMDA UNING TARJIMASHUNOSLIKDAGI IFODASI

Tursunova Marxabo Raxmonovna,
Osiyo xalqaro universiteti tayanch doktoranti

Kognitiv dissonans – bu psixologiyada Leon Festinger tomonidan ishlab chiqilgan tushuncha bo‘lib[1], shaxsning ichki e’tiqodlari, qarashlari va amaliy xatti-harakatlari orasidagi ziddiyat natijasida yuzaga keladigan ichki psixologik noqulaylikni ifodalaydi. Ushbu fenomen psixologik stress, qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar va ichki muvozanatni saqlashga bo‘lgan ehtiyoj bilan chambarchas bog‘liq. Adabiyotlarda kognitiv dissonans odatda shaxsiy qarorlar, ijtimoiy xatti-harakatlar yoki axloqiy dilemma kontekstida o‘rganiladi.

So‘nggi yillarda kognitiv dissonans fenomeni tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarida ham e’tibor qozonmoqda. Adabiy matn va uning tarjimasi orasidagi semantik, stilistik va madaniy tafovutlar, shuningdek, matn qahramonlarining ichki psixologik holati, dissonansni aniqlash uchun muhim manba hisoblanadi. Shu kontekstdan kelib chiqqan holda, ushbu maqola kognitiv dissonans fenomenini tilshunoslik, tarjimashunoslik va psixologiya nuqtai nazaridan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, Jojo Moyesning *«To seni topgunimcha»* asaridan olingan matn parchasini asos qilib oladi.

Kognitiv dissonans psixologiyada shaxsning ichki qarashlari, e’tiqodlari va xatti-harakatlari orasidagi nomuvofiqlikni aniqlash va tushunishga xizmat qiladi. Festinger ta’kidlashicha, inson o‘z qarashlari yoki qadriyatlari bilan amaliy xatti-harakatlari o‘rtasida ziddi-

[1] Leon Festinger. A Theory of Cognitive Dissonance. Stanford: Stanford University Press, 1957. P – 76.

yat yuzaga kelganda, bu ichki psixologik noqulaylik – ya'ni dissonans – hosil bo'ladi. Dissonans shaxsda ruhiy stress, bezovtalik va ichki qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi[1]. Ushbu noqulaylikni kamaytirish va psixologik muvozanatni tiklash uchun shaxs bir necha strategiyalardan foydalanadi:

Jojo Moyesning *«To seni topgunimcha»* asaridan olingan iqtibosdagi Willning holati psixologik dissonansning murakkab va realistik namunasini ko'rsatadi. Willning jismoniy kasalligi va ruhiy charchashi bilan atrofidagi insonlarning unga yordam berish istagi o'rtasidagi qarama-qarshilik uning ichki stressini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu ziddiyat Willning ruhiy charchashini kuchaytiradi, ichki qaror qabul qilishdagi murakkablikni kuchaytiradi va hayotga bo'lgan motivatsiyani pasaytiradi. Shu bilan birga, u shaxsiy mustaqillik va boshqalarning yordamiga qaramlik o'rtasida psixologik muvozanatni saqlashga harakat qiladi, bu esa dissonansni yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, dissonans Willning atrofdagilar bilan muloqotdagi xatti-harakatlarida ham namoyon bo'ladi. Masalan, u atrofdagilar bilan oddiy suhbatlarda qatnashadi, lekin bu qatnashish uning ichki hissiy holatiga mos kelmaydi. Shuning uchun Willning harakatlari va ichki qarashlari orasidagi ziddiyat, shaxsning psixologik holatini yanada murakkablashtiradi va o'quvchiga uning hissiy vaziyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu tarzda, psixologik dissonans fenomeni nafaqat shaxsning ichki qarashlari va tashqi harakatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni ko'rsatadi, balki adabiy matnda qahramonning ruhiy holatini, motivatsiyalarini va qaror qabul qilishdagi murakkabligini aniqlash uchun ham samarali vosita hisoblanadi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan kognitiv dissonans fenomeni adabiy matnlarni tahlil qilishda muhim o'ringa ega[2]. Bu fenomen asosan semantik, pragmatik va stilistik qarama-qarshiliklar orqali yuzaga keladi. Adabiy matnda qahramonlarning ichki his-tuyg'ulari va tashqi xatti-harakatlari o'quvchi tomonidan idrok etilayotganda, ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchida ichki psixologik dissonansni yuzaga keltiradi[3], ya'ni matn o'quvchi ongida hissiy va kognitiv ziddiyatni paydo qiladi. Shu bilan birga, tarjima jarayonida ham tilshunoslikning turli darajalari dissonansning paydo bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Quyida sardan olingan parchani semantic, pragmatic va stilustic jihatdan tahlil qilib ko'ramiz.

Asliyatda: *Every time I looked at Will I wondered if I had done the right thing. He had been cleared by his GP for travel only the night before. He ate little and spent much of every day asleep. He seemed not just weary from his illness, but exhausted with life, tired of our interference, our upbeat attempts at conversation, our relentless determination to try to make things better for him. He tolerated me, but I got the feeling that he often wanted to be left alone. He didn't know that this was the one thing I could not do.*

– There's the airline woman,» I said, as a uniformed girl with a bright smile and a clipboard walked briskly toward us.

– Well, she's going to be a lot of use on transfer,» Nathan muttered. «She doesn't look like she could lift a frozen prawn.

– We'll manage,» I said. «Between us, we will manage.»

Tarjimada: *Uillga har gal nazar tashlaganimda, bu ishni to'g'ri qilayotganligimga shubhalanib qolardim. Terapevt bu sayohatga kecha kechasigagina rozi bo'ldi. Uill kam ovqatlanar, kunning uzoq qismida uxlar edi. U nafaqat hastalikdan, shu bilan birga bizlarning aralashuvimiz, suhbatlashishga bo'lgan urinishlarimiz, tagiga poxol to'shashlarimiz bilan to'la hayotdan charchaganligini ko'rinib turardi. Uni o'z holiga qo'yishlarini xohlashini sezib turgan bo'lsamda, u menga ro'yxushlik berardi. Uni o'z holiga tashlab qo'ya olmasligimni u bilmasdi.*

– Mana aviakompaniya xodimasi, – dedim men biz tomonga qo'ltig'iga papkasini qistirib olgan va og'zi qulog'iga yetgancha, tabassum bilan kelayotgan uniformali qiz yaqinlashayotganiga ko'zim tushgach.

– Aravamizni salonga chiqarishda foydasi tegishiga ishonaman, – to'ng'illadi Natan.

– U hatto muzqaymoqni ham ko'tara olmasa kerak. – Biz eplaymiz, – tasdiqladim men. – Sen bilan buni eplay olamiz.

Semantika – bu so'z va iboralar ma'nosi bilan bog'liq til darajasidir. Semantik dissonans, asosan, matn elementlarining ma'nosining tarjimada o'zgarishi yoki kontekst bilan mos kelmasligidan kelib chiqadi[4]. Masalan, Jojo Moyesning asaridagi *«frozen prawn»* iborasi ingliz tilida aniq bir jismoniy obyektni bildiradi va matndagi yumor yoki kontekstual subtillar bilan boyitilgan. O'zbek tiliga tarjima qilganda bu ibora *«muzlatilgan krevetka»* shaklida berilishi mumkin, biroq uning kontekstual subtillarini yetkazish qiyin. Natijada, o'quvchi ichki psixologik dissonansni boshdan kechiradi: u so'zning ma'nosini tushunadi, lekin asarning subtillarini to'liq idrok eta olmaydi. Shunday qilib, semantik daraja tarjimada dissonansni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

[1] Leon Festinger. Cognitive Dissonance. Scientific American, 1962. P – 45.
[2] Lawrence S. Wrightsman, David Deaux**.** Social Psychology in the 80s. Monterey: Brooks/Cole Publishing, 1981. – P.34.
[3] George Lakoff, Mark Johnson. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P.67.
[4] Peter Newmark. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988. – P.89.

Pragmatika – bu til elementlarining ijtimoiy va madaniy kontekstda ishlatilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tilshunoslik darajasidir. Matndagi kontekstual ma’lumotlar, qahramonlar orasidagi muloqotning ijtimoiy normativasi yoki madaniy tafovutlar tarjimada yo‘qolsa, bu o‘quvchida dissonansni kuchaytiradi. Masalan, ingliz tilidagi yumor, so‘z o‘yinlari yoki idiomatik ifodalar o‘zbek tilida aniq mos kelmasligi mumkin. Natijada, o‘quvchi qahramonlarning his-tuyg‘ularini va muloqot uslubini to‘liq tushunolmaydi, bu esa ichki kognitiv ziddiyatni yuzaga keltiradi. Pragmatik darajada yuzaga keladigan dissonans, shuningdek, tarjimonning matnni madaniy moslash jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshilik bilan bog‘liqdir. Tarjimon literal va kontekstual ma’nolarni muvozanatlashga harakat qiladi, bu esa ichki psixologik tanlov va dissonansni oshiradi.

Stilistika – bu til elementlarining ifodaviy va estetik vositalar orqali ishlatilishini o‘rganadigan tilshunoslik darajasidir. Stilistik dissonans metafora, simvolika, hissiy ifodalar yoki humoristik elementlarning tarjimada mos kelmasligi orqali yuzaga keladi. Masalan, asardagi Willning ruhiy holatini tasvirlovchi jumlalar, ularning stilistik boyligi va hissiy intensivligi tarjimada soddalashtirilsa yoki o‘zgartirilsa, o‘quvchi qahramonning ichki ziddiyatini to‘liq idrok eta olmaydi. Shuning uchun, stilistik dissonans o‘quvchi tajribasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi va kognitiv dissonansni kuchaytiradi[1].

Shunday qilib, tilshunoslik nuqtai nazaridan kognitiv dissonans uch asosiy darajada yuzaga keladi: semantik**,** pragmatik va stilistik**.** Har bir daraja tarjima jarayonida o‘quvchining matnni idrok etishida psixologik va kognitiv qarama-qarshilikni shakllantiradi. Shu bilan birga, bu fenomen adabiy matnning murakkabligini, qahramonlarning psixologik holatini va tarjimonning lingvistik tanlovlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu maqolada kognitiv dissonans fenomenini o‘rganish uchun sifatli (kvalitatif) tahlil usuli asosiy metod sifatida tanlangan. Kvalitatif tadqiqot yondashuvi adabiy matnni chuqur psixologik, lingvistik va madaniy kontekstlarda tahlil qilish imkonini beradi, shuningdek, qahramonlarning ichki hissiy holati va matnning tarjima jarayonidagi subtil farqlarini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot obyekti sifatida Jojo Moyesning *«To seni topgunimcha»* asaridan olingan quyidagi matn parchasiga e’tibor qaratilgan:

«Every time I looked at Will I wondered if I had done the right thing. He had been cleared by his GP for travel only the night before. He ate little and spent much of every day asleep. He seemed not just weary from his illness, but exhausted with life, tired of our interference...»

Tadqiqot jarayoni uch asosiy yo‘nalishda olib borildi:

Semantik tahlil orqali matndagi dissonansni yuzaga keltiradigan so‘z va iboralar aniqlanadi. Bu tahlil qahramonlarning ichki qarashlari va tashqi harakatlari o‘rtasidagi ziddiyatni aniqlash, shuningdek, tarjimada semantik o‘zgarishlar orqali yuzaga keladigan dissonansni tushunishga xizmat qiladi. Misol uchun, *«exhausted with life»* iborasi Willning ruhiy charchashini va hayotga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishini ifodalaydi. Semantik tahlil, shuningdek, tarjimada qaysi so‘zlar va iboralar original kontekstga mos kelmaganini aniqlash imkonini beradi.

Tarjima tahlili adabiy matnning lingvistik, stilistik va madaniy xususiyatlarini o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Bu tahlilning maqsadi – matndagi subtil ma’no, hissiy ton va yumorni tarjimada saqlash imkoniyatlarini aniqlashdir. Masalan, *«frozen prawn»* iborasi ingliz tilida nafaqat jismoniy obyektni, balki kontekstual subtillarni va humoristik ohangni bildiradi. O‘zbek tilida bu iborani *«muzlatilgan krevetka»* deb tarjima qilish mumkin, ammo bu subtillar to‘liq yetkazilmaydi. Tarjima tahlili, shuningdek, tarjimonning ichki tanlovlari, ya’ni literal tarjimani afzal ko‘rish yoki ma’noni moslashtirish orqali kontekstni saqlash kabi dissonansli qarorlarini aniqlashga imkon beradi.

Psixologik tahlil qahramonlarning ichki hissiy holatini va qaror qabul qilishdagi ziddiyatlarini o‘rganishga qaratilgan[2]. Bu usul yordamida Willning kasallikdan charchashi, atrofdagilarning yordamiga bo‘lgan reaksiyasi va ichki motivatsiyadagi ziddiyatlar tahlil qilinadi. Shu tarzda, psixologik tahlil orqali qahramonning ichki dissonansi aniqlanadi va o‘quvchiga uning ruhiy holatini chuqurroq idrok etish imkoniyati beriladi.

Ushbu tadqiqotda semantik, tarjima va psixologik tahlil birgalikda qo‘llanilib, kognitiv dissonans fenomenini har tomonlama o‘rganish imkonini berdi. Bu yondashuv adabiy matnning lingvistik, stilistik va psixologik qatlamlarini birlashtirib tahlil qilishga imkon beradi. Shu orqali matnning o‘quvchi tomonidan idrok etilishi, tarjima jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar va qahramonlarning ichki ziddiyatlari sistematik ravishda aniqlanadi.

[1] Eugene Nida, Charles Taber. The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill, 1969. – P.23.
[2] Patrick Colm Hogan. Cognitive Science, Literature, and the Arts. New York: Routledge, 2003. – P.23.

Lingvistik va tarjimashunoslik dissonansi

Inglizcha ibora	O‘zbekcha tarjima	Tahlil
frozen prawn	muzlatilgan krevetka	Literal tarjima; kontekstual yumor yo‘qoladi
he tolerated me	u menga ro’yxushlik berardi	Asl psixologik noqulaylik yumshatilgan
exhausted with life	hayotdan charchagan	Emotsional intensivlik saqlangan, lekin asosiy ma’no yo‘qolgan

Tarjima jarayonida lingvistik va madaniy dissonans yuzaga keladi, bu esa o‘quvchi va tarjimonni ichki tanlovga majbur qiladi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kognitiv dissonans fenomeni adabiy matnni tahlil qilishda muhim va samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchidan, psixologik nuqtai nazardan, dissonans qahramonlarning ichki hissiy holati va tashqi muhit bilan o‘zaro munosabatlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, Willning ruhiy charchashi va atrofdagi insonlarning unga ko‘rsatadigan e’tiborining qarama-qarshiligi psixologik dissonansni kuchaytiradi, bu esa o‘quvchiga qahramonning ichki dunyosini chuqurroq idrok etishga imkon beradi. Shu jihatdan, kognitiv dissonans adabiy tahlil uchun nafaqat psixologik kontekstni aniqlash, balki qahramonlarning motivatsiyasi va qaror qabul qilishdagi murakkabliklarni tushunish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tarjimashunoslik nuqtai nazaridan, lingvistik va madaniy qarama-qarshiliklar tarjimonni ichki tanlovga majbur qiladi. Tarjimon matnning semantik va stilistik boyligini saqlashga intiladi, lekin madaniy tafovutlar va kontekstual subtillar bu jarayonni murakkablashtiradi. Masalan, *«frozen prawn»* iborasining o‘zbek tilidagi literal tarjimasi (*«muzlatilgan krevetka»*) matndagi hissiy ohang va humoristik elementlarni to‘liq yetkazmaydi. Shu sababli tarjimon dissonansni boshdan kechiradi: u literal tarjimani tanlash yoki matn ma’nosini moslashtirish orqali kontekstual subtillarni saqlash variantlarini muvozanatlashga majbur bo‘ladi. Bu holat tarjimashunoslikda kognitiv dissonansning markaziy rolini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, tilshunoslik nuqtai nazaridan, dissonans semantik, sintaktik va pragmatik darajalarda o‘rganilishi mumkin. Semantik darajada dissonans so‘z va iboralarning bir-biriga mos kelmasligi yoki kontekstga zid bo‘lishi orqali yuzaga chiqadi. Sintaktik darajada qahramonlarning jumla tuzilishi va muloqot uslublari dissonansga sabab bo‘lishi mumkin. Pragmatik darajada esa matndagi ijtimoiy va madaniy kontekstlar, qahramonlar o‘rtasidagi muloqotning normativ jihatlari dissonansni kuchaytiradi. Shu bilan birga, tilshunoslik tahlili kognitiv dissonansni o‘quvchi tomonidan idrok etilishida muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bilan birga, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kognitiv dissonans fenomenini adabiy matnni tahlil qilish va tarjima jarayonida o‘rganish, lingvistik, stilistik, madaniy va psixologik komponentlarni birlashtirib, matnni har tomonlama chuqur anglash imkonini yaratadi. Natijada, kognitiv dissonans adabiy tahlil, tilshunoslik va tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun samarali ilmiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Ushbu maqola kognitiv dissonans fenomenini psixologiya, tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tizimli tarzda tahlil qildi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, kognitiv dissonans adabiy matnlarni o‘rganishda va tarjima jarayonida uch asosiy darajada yuzaga chiqadi: psixologik, lingvistik va madaniy. Psixologik nuqtai nazardan kognitiv dissonans shaxsning ichki psixologik holati va atrof-muhit ta’siri o‘rtasidagi ziddiyat orqali yuzaga keladi. Jojo Moyesning *«To seni topgunimcha»* asaridagi Will qahramoni misolida bu fenomen aniq ko‘rinadi. Willning kasalligi, ruhiy charchashi va hayotga bo‘lgan motivatsiyasidagi pasayish uning atrofdagi insonlar tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam va ijobiy muloqot bilan qarama-qarshilik hosil qiladi. Ushbu ichki va tashqi ziddiyat o‘quvchida qahramonning ichki stressini sezishga va uning hissiy holatini chuqurroq idrok etishga imkon yaratadi.

Tarjimashunoslik nuqtai nazaridan kognitiv dissonans tarjimonning ichki tanlovi va qarama-qarshiliklar orqali yuzaga chiqadi. Tarjimon matndagi semantik va stilistik moslikni saqlashga intilsa ham, madaniy tafovutlar va kontekstual subtillar bu jarayonni murakkablashtiradi. Masalan, *«frozen prawn»* iborasi ingliz tilida o‘ziga xos humoristik va hissiy ohangga ega bo‘lib, o‘zbek tilidagi literal tarjimasi (*«muzlatilgan krevetka»*) bu subtillarni to‘liq yetkazmaydi. Shu bilan tarjimon literal tarjimani tanlash yoki ma’noni moslashtirish orqali matnning kontekstual va stilistik ohangini saqlash imkoniyatini muvozanatlashga majbur bo‘ladi. Natijada, tarjimashunoslik jarayonida dissonans fenomeni yanada sezilarli darajada namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan, kognitiv dissonans semantik, sintaktik, pragmatik va stilistik darajalarda o‘rganilishi mumkin. So‘z va iboralar ma’nosidagi qarama-qarshiliklar, jumla tuzilishi va muloqot uslubidagi tafovutlar, shuningdek, madaniy kontekst bilan bog‘liq dissonans o‘quvchining matnni idrok etish ja-

rayonini murakkablashtiradi. Shu tarzda, dissonans fenomeni o‘quvchida empatiya va qahramonning ichki dunyosini tushunish qobiliyatini oshiradi.

Shunday qilib, kognitiv dissonans fenomeni adabiy tahlil, tilshunoslik va tarjimashunoslik tadqiqotlari uchun samarali ilmiy vosita sifatida xizmat qiladi, matnning psixologik, lingvistik va madaniy qatlamlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi, va o‘quvchining adabiy matnga nisbatan empatiyasini shakllantiradi. Ushbu tadqiqot natijalari kelajakda adabiy tarjima va lingvistik tahlil sohalarida kognitiv dissonansni yanada kengroq o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Rezyume. Ushbu maqola kognitiv dissonans fenomenini tilshunoslik, tarjimashunoslik va psixologiya doirasida o‘rganadi hamda tahlil uchun Jojo Moyes ning «Me Before You» romanidan olingan matn parchasidan foydalanadi.

Resume. This article explores the phenomenon of cognitive dissonance in the context of linguistics, translation studies, and psychology, using a passage from Jojo Moyes' «*Me Before You*».

Резюме. Статья исследует феномен когнитивного диссонанса в контексте лингвистики, переводоведения и психологии на примере фрагмента из произведения Джоджо Мойес «*До того встречи с тобой*».

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2026; 3
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ZAMONAVIY MOBIL ALOQA TERMINLARIDA TRANSLITERATSIYA STRATEGIYALARI: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI QIYOSIDA

Arzimurodova E’zoza Berdimurod qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

XXI asr axborot texnologiyalari davri sifatida til tizimida yangi terminologik qatlamning jadal shakllanishiga olib keldi. Ayniqsa mobil aloqa texnologiyalari sohasida yuzaga kelayotgan innovatsiyalar bilan birga ko‘plab yangi terminlar paydo bo‘lmoqda. Bu terminlarning aksariyati ingliz tilida yaratiladi va global texnologik diskurs orqali boshqa tillarga kirib boradi.

Mobil texnologiyalar terminologiyasining kengayishi til tizimida yangi lingvistik jarayonlarni yuzaga keltiradi. Shunday jarayonlardan biri transliteratsiya hisoblanadi. Transliteratsiya terminologiyada bir yozuv tizimida ifodalangan birlikni boshqa yozuv tizimi orqali grafik jihatdan ifodalash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Biroq amaliy til jarayonida transliteratsiya ko‘pincha fonetik va morfologik moslashuv bilan ham birga kechadi.

Mobil aloqa terminologiyasida transliteratsiya jarayoni ayniqsa faol namoyon bo‘ladi. Masalan, smartphone, hotspot, roaming, mobile data, touchscreen kabi terminlar o‘zbek tilida turli shakllarda qo‘llanmoqda. Ba’zi terminlar asl grafikasini saqlagan holda ishlatilsa, ayrimlari esa o‘zbek fonetik tizimiga moslashadi. Shu sabab mobil terminologiyada transliteratsiya masalasini o‘rganish tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tad-